



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-aprel holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan
o'tgan

17313

Faoliyat
ko'rsatayotgan

16390

Yangi tashkil
etilganlar

1872

2019-yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida 1872 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1353 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2418 ta (17,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16390 tani tashkil etgan.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)

17313

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda




18,5 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati

2019-yilning 1-aprel holatiga 17313 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,5 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,9 % savdo, 16,6 % sanoat, 9,8 % qurilish, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7 % tashish va saqlash, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % axborot va aloqa hamda 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (4476 ta) savdo, (2878 ta) sanoat, (1689 ta) qurilish, (1303 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1081 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (638 ta) tashish va saqlash, (354 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (246 ta) axborot va aloqa hamda (4648 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 16390 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2418 ta (17,3 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sg'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Urganch shahri (3884 ta), Urganch tumani (1767 ta), Xiva shahri (1515 ta), Xiva (1475 ta) va Xonqa tumani (1288 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (630 ta), Shovot (776 ta) hamda Bog'ot (819 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-mart oylarida 1872 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1353 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (795 ta), sanoat (393 ta), yashash va ovqatlanish (144 ta) va qurilish (140 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (12 ta) hamda tashish va saqlash (45 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



795

Tashish va saqlash



45

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



144

Qurilish



140

Sanoat



393

Axborot va aloqa



10

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



12

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



116


Boshqa turlar





217

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (355 ta), Urganch tumani (277 ta), Xazorasp tumani (196 ta) va Xiva shahri (161 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangibozor (73 ta), Yangiariq (79 ta) hamda Bog'ot (90 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.



Tijorat korxonalari


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 13402 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



81 ta



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 55,8 % o'sgan.


Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 81 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga yoki 55,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 60 tasi qo'shma, 21 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Urganch shahrida 23 ta (jamidagi ulushi 28,4 %), Shovot tumanida 11 ta (13,6 %) va Urganch tumanida 10 tani (12,4 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xiva 4 ta (4,9 %), Yangiariq 4 ta (4,9 %), Yangibozor 3 ta (3,7 %), Xazorasp 2 ta (2,5 %) hamda Xonqa 2 ta (2,5 %) tumanlarida tashkil etgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda yashash va ovqatlanish faoliyat turiga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




1

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 13 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12 taga ko'paygan.



Turkmaniston rezidentlari kapitali ishtirokida – 7 ta, Rossiya Federatsiyasi – 4 ta, Amerika Qo'shma SHTatlari – 1 ta va Eron Islom Respublikasi – 1 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 2 ta savdo, 4 ta sanoat, 2 ta qurilish, 2 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2 tasi tashish va saqlash hamda 1 ta yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)




2019-yil 1-aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 13335 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 19,7 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-mart oylarida 1802 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2197 taga ko'proqdir.




**•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng katta
ulushi**

**•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng kichik
ulushi**










Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13335 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4242 ta (31,8 %) – savdo, 2713 ta (20,3 %) - sanoat, 1576 ta (11,8 %) - qurilish, 1198 ta (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 988 ta (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 598 ta (4,5 %) - tashish va saqlash, 276 ta (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 212 ta (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1532 tasi (11,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 795 ta, sanoat 393 ta, Yashash va ovqatlanish 142 ta va qurilish 139 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 10 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 12 ta, hamda tashish va saqlashda 45 ta tashkil etilgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (347 ta), Urganch tumani (272 ta), Xazorasp tumani (182 ta) va Xiva shahri (159 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangibozor (65 ta), Yangiariq (76 ta) hamda Bog'ot (86 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-aprel holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 28,8 % yoki 479 tasi sanoat, 26,8 % yoki 445 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 25,9 % yoki 430 tasi savdo, 7,2 % yoki 120 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 20 tasi qurilish, 0,8 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 14 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 10 tasi tashish va saqlash hamda 7,9 % yoki 131 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.**

Tel.:62-224-65-11